

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.05/29.12.2023. Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**MUXAMEDOVA GULI BAXODIROVNA**

**TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA**  
**TAYYORLASHDA KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**  
**METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(xorijiy tillarni o'rganish misolida)**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Muxamedova Guli Baxodirovna**

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (xorijiy tillarni o'rganish misolida)..... 3

**Мухамедова Гули Баходировна**

Совершенствование методики формирования креативной компетентности при подготовке студентов к профессионально-педагогической деятельности (на примере изучения иностранных языков).....25

**Muxamedova Guli Baxodirovna**

Improving the methods of forming creative competence in preparing students for professional and pedagogical activities (on the example of learning Foreign languages) .....53

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....56

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023. Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**MUXAMEDOVA GULI BAXODIROVNA**

**TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA  
TAYYORLASHDA KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(xorijiy tillarni o'rganish misolida)**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4648 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Professional ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ipitvet.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Olimov Qahramon Tanzilovich**  
Pedagogika fanlari doktori, professor

**Kalandarova Safiya Taxirovna**  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_”\_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 96-uy. Tel.: (71) 246-92-17, faks: (71) 246-90-37 E-mail: [pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz](mailto:pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz) ).

Dissertatsiya bilan Professional ta’limni rivojlantirish institutining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 96-uy. Tel.: 71 246-92-17; faks: 71 246-97-37).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_”\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_”\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayyonomasi).

**R.X.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

**S.Yu.Ashurova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

**X.Sh.Kadirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlariga talabalarning ijodiy faolligini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari tatbiq qilinmoqda. Talabalarni kreativ kompetentli, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlashda CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablariga muvofiq ta'lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish, talabalar ijodiy faolligini rivojlantirish, talabaning subyektiv pozitsiyasini namoyon etish zarurligini belgilashga tegishli yirik loyihalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda.

Ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida hamda etakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida xorijiy tillardan bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modellarini rivojlantirish, talabalarning bilim faolligini takomillashtirish, yangi ta'lim standartlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligini oshirish, ijodiy aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich takomillashtirish, talabalarning ijodkorlik faolligini hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari vositasida rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, o'quv hamda kognitiv faoliyatning passiv obyektlari bo'lgan talabalarning ijodkorligini takomillashtirish, faol ijodiy izlanish tahlilini amalga oshirish, takomillashtiruvchi o'quv jarayonlarini tashkillashtirish, modulli ta'limni yo'lga qo'yishni optimallashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda talabalarni kreativligini dunyo hamjamiyati talablari asosida tashkil etish, xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan kadrlar tayyorlash shuningdek jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanishning meyoriy asoslari ishlab chiqilmoqda hamda moddiy-texnik bazasi boyutilmoqda. "Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish hamda ta'lim sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati, samaradorligini oshirish"<sup>1</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida chet tili ta'limini fanlarga integrallashtirilgan holda o'qitishni va takomillashtirish kabi dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni

---

<sup>1</sup> "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni

ommashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat, demokratik davlatni ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda zamonaviy sharoitlarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, integrativ kasbiy bilim berishning tizimli modellarini ishlab chiqish, malakali kadrlar kasbiy tayyorgarligini turli aspektlarda takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-innovatsion tayyorgarligidagi ijodiy faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, ilmiy-didaktik asoslari respublikamiz olimlaridan R.H.Djurayev, Sh.E.Qurbanov, A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, F.M.Zakirova, G.N.Ibragimova, R.D.Shodiyev, N.M.Egamberdiyeva, D.I.Ro'ziyeva, E.R.Yuzlikayeva va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Respublikamizda xorijiy tillarni samarali o'qitish, ingliz tili fani o'qituvchilarining kasbiy malaka va mahoratlarini oshirish, ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish M.Aminov, J.Jalolov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, N.Alauddinova, N.Mahmudov, X.G'.Sharafuddinova, A.T.Nurmanov, A.Rafievlarning ilmiy-metodik ishlarida chuqur o'rganilgan.

Kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativlik va kommunikativlik masalalarining pedagogik-psixologik aspektlari, talabalarining o'z-o'zini ijodiy faollashtirishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini tashkil etish muammolari bo'yicha Dj.Gilford, Ye.Torrens, A.Leontyev, A.Maslov, K.Rojers, N.Ilin, M.Davletshin, V.A.Slastenin, G.Chijakova, I.Ridanova, Y.Kruglova, J.Yo'ldoshev, N.Azizxodjayeva, O'.Tolipov, E.G'oziyev kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

MDH mamlakatlarida oliy ta'limda pedagoglarni tayyorlash jarayonida ijodiy qobiliyatlarni faollashtirish va rivojlantirish masalalari L.A.Burovkina, Ye.A.Znovenko., Ye.A.Lapina, I.V. Dinershteyn va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rib o'tilgan.

Xorijiy mamlakatlarning olimlari B.Blum, R.Boyasis, S.Brindt, T.Hoffmann, R.Kuinn, G.Kulanthavel, G.Lehmann, R.Marr, A.Maslou, H.Miyakawa, R.Mohan,

Dj.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford tadqiqotlarida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kompetentli yondashuv, zamonaviy o'qitish va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish muammolari o'rganilgan va tahlil etilgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash muammosi yuzasidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning xorijiy tillarni o'qitish asosida ijodiy-faoliyatini, kreativlik qobiliyalarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari va metodikasi to'liq ochib berilmagan, ularni takomillashtirish muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish muammosini tadqiq etish zaruriyatini taqozo etadi.

### **Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025 yy.) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda xorijiy tillarni o'qitish orqali kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz tili darslari asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirish ularni pedagogik tahlil qilish va kreativlikni oshirishga xizmat qilishini ochib berish;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modelini ishlab chiqish;

talabalarga xorijiy til o'qitish asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishni mobil ilova afzalliklaridan foydalanish orqali takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmetini** pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalariga xorijiy tilni o'qitish asosida kreativlik kompetentligini rivojlantirishning shakl, metodlari hamda vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, falsafiy, psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; oliy ta'limning malaka talablari, ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining me'yoriy hujjatlari, ish dasturlari, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar mazmunini ilmiy-uslubiy tahlil qilish; pedagogik eksperiment; so'rov o'tkazish, test o'tkazish, mutaxassislar va

talabalar bilan suhbatlashish uchun amaliy usullar; o‘z-o‘zini baholash va ekspert baholash usullari, reyting, loyihalash, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov; psixodiagnostika, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirish jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning tuzilmaviy komponentlarini ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetensiyalar bilan integratsiyalash asosida ochib berilgan;

nofilologik ta’lim yonalishlarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda produktiv til ko‘nikmalari (og‘azaki nutq)ni pedagogik masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligi hamda talabalar ijodiy izlanishni rag‘batlantirish asosida boyitish orqali og‘zaki kreativ fikrlash darajasiga ega bo‘lishni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

xorijiy tilni o‘qitish jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli o‘quvchilarning ijodiy faolligi, o‘qituvchi va talabaning o‘zini o‘zi anglashi hamda motivatsion, kognitiv, xulq-atvorga oid, ijodiy-konstruktiv funksional komponentlarining rivojlanishi darajalarini motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv mezonlar asosida belgilash orqali takomillashtirgan;

talabalarni kasbiy, pedagogik faoliyatga tayyorlashda xorijiy tilni o‘qitish orqali kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi talabalarning og‘zaki qaytma aloqalarini samarali ta’minlovchi CLP (lingvistik psixologiya markazi), grammatika-tarjima (the grammar translation) audio-lingual (audio-lingual), propriotseptiv (propriosertive) va pimsleur (pimsleur) metodlariga ko‘ra takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarining kreativlik kompetentligi (motivatsion, kognitiv, xulq-atvor, ijodiy konstruktiv funksional komponentlari) ni rivojlantirishning tashkiliy-metodik, pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan;

“Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi” fanidan metodik ko‘rsatmalar, “Ingliz tili” fanidan elektron mobil ilovasi hamda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarga xorijiy tillarni o‘qitish orqali kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta’minoti tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va metodologik yondashuvlarda ularning samaradorlik darajasini aniqlagan o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

xorijiy tilni o‘qitish jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan;

“Xorijiy til” fanini o‘qitish jarayonida talabalarda kreativlik kompetensiyalarni rivojlantirishga va takomillashtirishga qaratilgan axborot-didaktik ta’minot, jumladan, interfaol o‘qitish metodlari (SCC va LMS), keyslar to‘plami va ijodkorlik xarakteridagi mashqlar, ijodiy topshiriqlarni o‘z ichiga olgan mobil ilova hamda o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** amalga oshirilgan yondashuvlar hamda usullar, foydalanilgan nazariy, amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, analitik hamda eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslangani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chet tili o'qitishda pedagogik texnologiyalarning turlari, yo'nalishlari, ularning lingvodidaktik xususiyatlari, ularga qo'yilgan uslubiy talablar mazmun mohiyati, uning ishlashini ko'rsatib beruvchi omillarni takomillashtirishda SCC va LMS texnologiyasidan foydalanishning mazmun mohiyati, bu texnologiyalarning lingvodidaktik xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'z-o'zini tashkil etish, o'zini rivojlantirishning tarkibiy hamda mazmunli xususiyatlari, ularni talabaning subyekt pozitsiyasini namoyon bo'lishida o'zaro bog'liqligi, ijodiy qobiliyatlar, talabalarning ijodiy, intellektual fazilatlarini rivojlantirishdagi farqlar, ta'limni rivojlantirish nazariyasi doirasida chet tilini o'rgatishda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning samarali shakllari, vositalari hamda metodlari majmui, shuningdek, tadqiqot jarayonida olingan materiallardan oliy hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash tizimi mutaxassislari, metodistlarning amaliyot jarayonini takomillashtirishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy va amaliy takliflari asosida:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tuzilmaviy komponentlari asosida takomillashtirishga hamda nofilologik ta'lim yonalishlarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalari asosida "Pedagogik menejment" deb nomlangan o'quv qo'llanma yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrugiga asosan 391149-son guvohnomasi). Natijada talabalarning xorijiy tillarni o'qishida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ijodiy kompetentligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minoti tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va metodologik yondashuvlarda ularning samaradorlik darajasi takomillashtirilgan;

xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modelini takomillashtirishga oid takliflaridan IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 8-noyabrdagi 4/17-4/2-833-son buyrug'iga asosan ma'lumotnomasi). Natijada, "Amaliy xorijiy til" o'quv kursi mazmuni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini

rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minoti tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va metodologik yondashuvlarda samarali takomillashtirilgan, talabalarning til organishdagi motivatsiyasini rivojlanishiga xizmat qilgan;

talabalarni kasbiy, pedagogik faoliyatga tayyorlashda xorijiy tilni o'qitish orqali kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid takliflar asosida IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" nomli innovatsiyon loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 8-noyabrdagi 4/17-4/2-833-son buyrugiga asosan ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda xorijiy tilni o'qitishda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi lingvo-madaniy, kommunikativ yondashuv, intensiv, emotsional-semantik, test, CLP, audio-lingual, pimsleur kabi metod va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga faol qo'llash asosida takomillashtirilgan va rivojlantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop ettirilgan, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 7 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan, kreativ kompetentlikning mazmun-mohiyati hamda talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari aniqlangan.

Axborot texnologiyalari globallashtirish, ayniqsa, raqamli texnologiyalar avj olayotgan, ijtimoiylashgan bir vaqtda bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy-pedagogik

faoliyatga tayyorlash yangi xususiyatlarga ega bo'lib, bu obyekt va subyektning o'sish darajasiga, kasbiy kompetensiyasiga taalluqlidir. Masalaning bu jihati faol individning umumiy va kasbiy madaniyatidan kelib chiqadi. Bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy-pedagogik faoliyatida kasbga doir vazifalarni to'la ado etishida orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalar qo'l keladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu – o'quv jarayonini o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, mayllari va intilishlarini hisobga olgan holda uning shaxsiyatiga yo'naltirishdir. Ya'ni o'quvchilarga kasbiy pedagogik ta'limni, avvalo, shaxsning individual fazilatlariga yo'naltirilgan kreativ o'qitishning har xil yondashuvlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Ijodkorlik nafaqat yangi narsalarni o'ylab topish, balki g'oyalarni aniq harakatlarga aylantirish va belgilangan maqsadlarga erishish qobiliyatidir. Ijodiy kompetensiya rejalashtirish, ishni tashkil etish, tavakkal qilish va vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Qiyinchiliklarni engib o'tish va muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqmaslik, muqobil yo'llarni izlash va o'zgarishlarga tayyor bo'lish muhimdir. Ijodkorlik ham shaxsiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir. Bu dunyiqarashni kengaytirishga, tasavvurni va hissiy intellektni rivojlantirishga yordam beradi. Ijodkor odamlar o'zlarini ifoda etish va o'z ichida uyg'unlikni topish qobiliyatiga ega. Ular atrofdagi dunyoning go'zalligini ko'ra oladilar, madaniyat va san'atga hissa qo'shadilar. Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun siz doimo bilim va tajribangizni kengaytirishingiz, yangi g'oyalar va fikrlarga ochiq bo'lishingiz, boshqalardan o'rganishingiz va turli manbalardan ilhom olishingiz kerak. Sinab ko'rishdan va tavakkal qilishdan qo'rqmaslik, muvaffaqiyatsizliklar va ular beradigan saboqlarga tayyor bo'lish ham muhimdir. Ijodkorlikni rivojlantirish vaqt va kuch talab etadi, lekin bu o'z-o'zini anglash va muvaffaqiyat uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Bugungi kunga kelib, ta'limda yangi ijtimoiy-ta'limiy g'oyalar nuqtai nazaridan kompetentlilik tuchunshasi yuqori darajada rivojlanib bormoqda. Kompetentlilikni rivojlantirishning birinchi bosqishi – uning tarkibiy qismlari doirasini subyektning kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan kreativ kompetensiyalarning qo'shimsha sohalarini kiritish hisobiga kengaytirish bilan bog'liqdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etish"ni ta'minlaydi. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning kreativlik (lot., ing. "Create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati darajasini aniqlab boradi.

So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. "Kreativ pedagogika" quyidagi beshta holatni kafolatlay olishi zarur:

- o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

- muammoga echim yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo echimini izlashda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashidan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir. O'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish zarur, deb hisoblaymiz.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, lekin ularni ifodalashda sustkashlikka ham yo'l qo'yadi. Shu sabab ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar bolalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi mumkin. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi. Bugungi kunda turli mamlakatlarda ilm-fan yo'nalishlari, ishlab chiqarish, texnika, texnologiya va ijtimoiy sohalarida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Har qanday islohot esa muayyan maqsadni ifodalash bilan birga, ma'lum darajada innovatsion o'zgarishlarning ro'y berishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, innovatsiyalar tezkor rivojlanish va o'zgarishlarning o'ziga xos omili sifatida ko'zga tashlanadi. Biroq, bu o'rinda shuni ham alohida qayd etib o'tish lozimki, islohotlar jarayonida ro'y berayotgan yangiliklarning barchasi ham innovatsiya bo'la olmaydi. Turli sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar mohiyati va yangilik darajasiga ko'ra ikki turga, ya'ni innovatsiya va innovatsion yangiliklarga ajratiladi. Agarda muayyan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa muddatli bo'lib, yaxlit tizim xususiyatini ifodalamas hamda mavjud tizimning ayrim unsurlarini o'zgartirishgagina xizmat qilsa, u holda novatsiya yuz berganligini anglash mumkin. Innovatsion o'zgarishlarni quyidagi mezonlarga muvofiq baholash imkoniyati mavjud: islohotlar mavjud nazariya va ta'limotlarning g'oyalariga muvofiq amalga oshiriladi, uning ko'lami aniq chegaralanadi, tashkil etilish va oraliq vaqti ma'lum bo'ladi, yangi metodlar qo'llaniladi hamda mavjud tizim takomillashadi. Sohada amalga oshirilayotgan islohotlar konseptual yondashuv

asosida tashkil etilib, ularning natijalari tizimning keskin rivojlanishi yoki tubdan o'zgarishini ta'minlasa, u holda innovatsion o'zgarishlarning sodir bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Innovatsion o'zgarishlarni esa quyidagi mezonlar yordamida baholash mumkin: islohot jarayoni muayyan tizim asosida davomli kechadi, yangi faoliyat tizimi loyihalanadi, subyektlari jarayondagi o'rni va roli o'zgaradi hamda ijobiy ahamiyat kasb etadi, faoliyatning yangi yo'nalishlari yuzaga keladi, ilg'or texnologiyalar yaratiladi, sifatga doir natijalar qo'lga kiritiladi.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijodiy kompetentsiyani rivojlantirish bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda muhim ahamiyatga ega. Texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarga bo'lgan talabning ortishi bilan ijodkorlik professionallar o'z martabalarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan hal qiluvchi mahoratga aylandi. Ijodiy kompetentsiya ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratish va murakkab muammolarga innovatsion echimlarni topish qobiliyatini anglatadi. Bu o'ziga xoslik, moslashuvchanlik, ravonlik va g'oyalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Kasbiy-pedagogik faoliyat kontekstida ijodiy kompetentsiya shaxslarga o'qitish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Talabalarining kasbiy va pedagogik rollariga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning bir necha yo'li mavjud:

- ochiq fikrlashni rag'batlantirish: talabalarga bir nechta nuqtai nazarlarni o'rganish va muqobil echimlarni ko'rib chiqish imkoniyatini bering. Ularni mavjud bilimlarini shubha ostiga qo'yadigan bahs- munozaralarga jalb qiling va ularni nostandart fikrlashga undaydi. Avtomatlashtirishning kuchayishi natijasida ko'plab an'anaviy ish joylari mashinalar bilan almashtirilmoqda, bu esa ishchi kuchining muvaffaqiyati uchun ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini zarur qilib qo'yimoqda. Ijodiy kompetentsiya – bu o'zgacha fikrlash, yangi g'oyalarni yaratish va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini anglatadi. Bu muammolarni turli tomonlardan tahlil qila olish, innovatsion echimlarni taklif qilish va g'oyalarni samarali uzatishni o'z ichiga oladi. Ushbu mahorat ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi, chunki u odamlarga murakkab va noaniq muhitlarda harakat qilish, imkoniyatlarni aniqlash va noyob echimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

- Xorijiy tilni o'rganish uchun bir necha g'oyalar: talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash sharoitida ijodiy kompetentsiya alohida ahamiyatga ega. Talabalar doimiy rivojlanib borayotgan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun ko'nikma va fikrlashga ega bo'lishi kerak. Ular yangi texnologiyalar, sohalar va ishlash usullariga moslasha olishlari darkor. Bundan tashqari, ijodiy kompetentsiya pedagogik faoliyat uchun zarurdir. O'qituvchilar o'qitishning innovatsion usullari orqali o'quvchilarni jalb qila olishlari va o'z yondashuvlarini o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtira olishlari lozim. Ular qiziqishni uyg'otadigan rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratishlari kerak. Chet tillarini o'rgatish haqida gap ketganda, ijodiy kompetentlik talabalar uchun o'rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

- Tilni o‘rganish bo‘yicha loyihalar: interaktiv loyihalarni belgilagancha o‘quvchilarning til o‘rganishini rag‘batlantirish. Misol uchun, ular to‘liq maqsadli tilda qisqa metrajli film yoki videosyujet yaratishlari, spektakl yozishlari va ijro etishlari yoki tildan foydalangan holda xorijiy shahar bo‘ylab virtual sayohat qilishlari mumkin.

- Til almashinuvi dasturlari: talabalaringizni ular o‘rganayotgan tilda so‘zlashuvchilar bilan bog‘lang. Bu yozishma bo‘yicha do‘stlar, videokonferentsiyalar yoki boshqa mamlakatlardagi maktablar bilan til almashish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘lishi mumkin. Bu talabalarga real dunyo kontekstida til ko‘nikmalarini mashq qilish imkoniyatini beradi.

- Madaniyat kunlari: muntazam ravishda talabalar o‘zlari o‘rganayotgan tilda so‘zlashuvchi mamlakatlarning urf-odatlarini, an‘analari va tarixi bilan tanishishlari va o‘rganishlari mumkin bo‘lgan “madaniyat kunlari”ni o‘tkazing. Bu asl taomlarni tatib ko‘rish, an’anaviy kiyimlar namoyishi, musiqa va raqs chiqishlari yoki turli madaniyatlardan kelgan mehmon ma’ruzaachilarni o‘z ichiga olishi mumkin.

- Til muammolari: talabalarni mashq qilish va til ko‘nikmalarini yaxshilashga undaydigan do‘stona til tanlovlari yoki musobaqalarini tashkillashtiring. Masalan, sizda so‘z boyligini oshirish uchun kurash, talaffuz tanlovi yoki hatto maqsadli tilda dolzarb mavzuda bahs-munozaralar bo‘lishi mumkin.

- Virtual Reality Language Immersion: virtual reallik texnologiyasidan virtual tilga butunlay berilib ketishdan taassurot yaratish uchun foydalaning. Talabalar o‘zlarini restoranda ovqatga buyurtma berish, yo‘nalishni so‘rash yoki sotish bo‘yicha muzokaralar olib borish kabi real hayot senariyalarida til ko‘nikmalarini mashq qilishlari mumkin bo‘lgan virtual muhitga butunlay berilib ketishlari mumkin.

- Gamifikatsiya: O‘rganishni qiziqarli va maroqli qiladigan til o‘rganish o‘yinlari va interaktiv onlayn platformalarni qo‘shing. Bu til o‘rganish ilovalari, onlayn viktorinalar yoki hatto tilga asoslangan stol o‘yinlarini yaratish yoki axlat uchun o‘yin qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Chet tillarini o‘rgatishdagi ijodkorlik nafaqat o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki turli madaniyatlarni chuqurroq tushunish va qadrlashga yordam beradi. Ushbu ijodiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan holda, siz o‘quvchilaringiz uchun til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishingiz mumkin. Hikoya: Siz va ishtirokchilar navbatma-navbat bir yoki ikkita jumla qo‘shib, noyob va hayajonli hikoya yaratish uchun birgalikda hikoya qilish faoliyati bilan shug‘ullaning. Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni unumli qo‘llash natijasida ta’lim shakllarini optimallashtirishga, ta’limning maqsadini aniq belgilashga, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini va faolligini oshirishga erishiladi.

Dissertatsiyaning **“Kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** deb

nomlangan ikkinchi bobida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan, ingliz tilini o'qitish asosida talabalarning kreativligini rivojlantirish jarayoni modellashtirilgan hamda chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakllari va uslublarini takomillashtirish masalalari bayon qilingan.


Talabalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ularning kreativ kompetentligini oshirishga qanday omillar yetarli darajada ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqqan holda ushbu jarayon muvaffaqiyatli davom etadigan quyidagi shart-sharoitlarni aniqlashga harakat qildik:

- ✓ ta'lim mazmunining ingliz tilidagi ma'nolarini yanada boyitish;
- ✓ kasbiy faoliyatga yetarli darajada ahamiyatga ega bo'lgan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatining asosiy elementi sifatida ishbilarmonlik odob-axloq qoidalarini yetarli darajada o'zlashtirish.

Tadqiqotimiz tahlillari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida mazmun va ma'nolarni boyitishni umumkasbiy va mutaxassislik fanlari talabalarining ijodiy faolligini oshirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy muhim shart. deb hisoblash mumkin. Ingliz tilidagi ta'limning asosiy mazmun-mohiyati uning ingliz tilini o'zlashtirishni kognitiv rivojlanish vazifalarini hal qilish orqali talabalarning kreativligini rag'batlantiradigan ijodiy, shaxsiy ahamiyatga ega jarayonga aylantirish imkonidan iborat.

Pedagogika ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, uning shakllanishi diagnostikasi, talabalarni ijodiy faollikka samarali tayyorlashga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi. Ijodiy ta'lim faoliyatining pedagogik texnologiyalari tanlab olinib, ishtirokchilar tarkibi aniqlandi hamda oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish ushun imkoniyatlar o'rganildi. (1-rasm)

Talaba shaxsining muayyan zahiralarga asoslanib, mashg'ulotlarni tashkil etish uning rivojlanish darajalari, g'oyaviy tayyorgarligi, ijodkorligi, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Material tanlashning asosiy tamoyillariga uning mazmunida ilgari surilgan maqsadlarini amalga oshirishning dolzarbligi, "talabalarning individual xususiyatlari" tajribasini inobatga olgan holda muayyan o'quv sharoitida ushbu tarkibni o'zlashtirish imkoniyatlari kiradi. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb topildi:



**1-rasm. Ingliz tilini o'qitish jarayonida qo'llanilgan usullar**

Ta'limning samarali tashkil etish usullariga quyidagilarni ham kiritish mumkin: hissiy ta'sir (empatiya, o'rgatish), noverbal ta'sir (mimika, imo-ishoralalar, postlar, harakatlar, ko'z ifodasi, ovoz intonatsiyasi), ratsional ta'sir (taklif, ko'rsatma). Umuman olganda, o'quv faoliyatining sanab o'tilgan yo'nalishlari faol fikrlaydigan hamda harakat qiladigan talabaning shaxsiyati shakllanadigan muhit, ijtimoiy iqlim va muhitni yaratish imkoniyatini beradi.

Amaliy mashg'ulotlarda ifodalangan rivojlanish imkoniyatlari talabaning ehtiyojlarini, o'z mustaqilligini ko'rsatishga intilishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim muassasasida ingliz tilini o'qitishning rivojlanayotgan funksiyasi o'quv jarayonini kengaytirilgan tartibda tashkil etish, talabalarning xotirasi, tasavvuri, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish hamda ta'kidlash qobiliyatini shakllantirish uchun haqiqiy materiallardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ingliz tilini o'rganish bo'yicha auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ijodiy faoliyatini samarali amalga oshirish shartlari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

1. Ijodiy faollik usullarini bosqichma-bosqich joriy etish, talabalarni majburiy vazifa va torshiriqlarni bajarishga tayyorlash, ya'ni boshlang'ich bilim va umumiy ta'lim ko'nikmalarini o'rgatish.

2. Talabalarga ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan turli xil mustaqil ish turlari, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan

vazifalarni to'g'ri tanlash, ularni amalga oshirish uchun ijobiy motivatsiyani kuchaytirish.

3. O'qituvchi tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash, talabalarga o'z-o'zini nazorat qilish va ijodiy faollik natijalarini hamda o'z-o'zini baholash usullarini o'rgatish.

4. Talabalarni berilgan topshiriqlarni bajarish ushuncha zarur ma'lumotlar olinadigan axborot manbalari bilan tanishtirish.

Umuman olganda, talabalarga kreativ kompetentlikka, uning mazmuni bilan tanishish uchun irodaviy kuchlanishga beqaror hissiy munosabat xosdir.


Bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyati uchun yangi shartlar, oliy kasbiy ta'lim tizimida yangi avlod standartlariga o'tish oliy ta'limda o'qitishning umumiy metodologiyasini ham, o'ziga xos uslub hamda texnikasini ham qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Pedagogika ixtisosliklari bo'yicha ta'lim standartlari, oliy o'quv yurti bitiruvchisiga qo'yiladigan talablar, shuningdek, ta'lim muassasasida ingliz tilini o'qitish amaliyotini nazariy tahlil qilish va o'rganish zarur bo'lgan qoidalarni aniqlash hamda metodik modelni ishlab chiqish imkonini berdi. (2-rasm)

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan metodik model chet tilini o'zlashtirishda ijodiy aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasi hamda muammoli ta'lim nazariyasiga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Tavsiya etilayotgan metodik model o'quv jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning obyektiv zarurati hisoblanib, uni nazariy, uslubiy jihatdan samarali amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarning etarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishga urinishdan iboratdir.

Metodik model kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning konstruktiv, dizayn, tashkiliy hamda kommunikativ kabi funksional komponentlarini o'z tarkibiga oladi.

Modellashtirishning dastlabki pozitsiyalarini aniqlab, biz tadqiqotimizda tarkibiy (maqsad, jarayonning mazmuni, natija) va funksional komponentlarning (ijodiy faollikni oshirish tamoyillari, mezonlari, darajalari) birligi bilan tavsiflangan nazariy modelga asoslandik. Ushbu modelda talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonining subyektlari tomonidan quyidagi ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi hisobga olindi: tashkiliy-tayyorgarlik, protsessual va ishlab chiqarish bosqichlari. Ushbu mezonlarga muvofiq o'quv jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlanish darajalari aniqlandi. Model tuzilishida majburiy element sifatida magistral aloqalar kiritilgan, buning natijasida boshqa elementlarning o'zaro aloqasi amalga oshiriladi.



**2-rasm. Chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli**

Demak, talabalar kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli tarkibiy qismlarining yaxlitligi bu ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarining asoslaridan biri – o'qitish jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirish hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida yosh avlodni o'qitishga mas'ul mutaxassislar ta'lim berishning innovatsion uslublari bilan tanishishlari kerak. Ularda axborot bilan ishlash, yangi bilimlarni yaratish va zarur bilim darajasini saqlab qolish metodlari mavjud. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar o'quv jarayonining nazariyasi, amaliyoti va texnologiyasi asoslari bilan tanishishlari zarur.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish texnologiyasi quyidagi asosiy prinsiplarga asoslangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Pedagogik maqsadga muvofiqlik tamoyili – har qanday manba pedagogik faoliyat vazifalarni hal qilishi kerak.

2. O'qitish jarayonining o'zaro ta'siri tamoyili – o'qituvchining har qanday faoliyati aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

3. Ta'riflashga yo'naltirilgan mavzuga oid rejalashtirish tamoyili – har bir individual dars mashg'ulotining yakuniy natijasi sifatida.

4. Bosqichli, bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini baholashning joriy va yakuniy nazoratni tashkil etish tamoyili

5. Faol ijodiy harakatlarni rag'batlantirish tamoyili – bo'lajak o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilganligi.

6. Turli xil texnikalar, shakllar, o'qitish metodlarini qo'llash tamoyili.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ingliz tilini o'rganish ijodiy va kompetentlikka asoslangan yondashuvlar, talaba va murabbiyning birgalikdagi faoliyati, talabaning o'z-o'zini anglashi va o'zini namoyon qilishi ehtiyojini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Biz mazkur tadqiqotimizda xorijiy (ingliz) tilini o'qitishning asosiy metodlarini, ularning afzalliklari va kamchiliklarini hamda ushbu metodlarni qo'llash asosida talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sirini ko'rib chiqishga harakat qildik.

**1. Fundamental metodologiya** – aksariyat oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan an'anaviy-klassik metodologiya. Bu bir boshidan tizimli o'rganish, 2-3 yilga mo'ljallangan bo'lib, ko'p mustaqil ishlarni talab qiladi.

**2. Klassik metod** – o'zbek tilida so'zlashadigan o'qituvchi tomonidan ingliz tilini har tomonlama o'rganishni o'z ichiga oladi, talabadan to'g'ri talaffuz qila olish, leksik zahirani shakllantirish, grammatikani bilish, shuningdek, xorijiy tilda muloqot jarayonida yuzaga keladigan til va psixologik to'siqlarni bartaraf etish talab etiladi. Ushbu metodning afzalligi talabaning nutqni o'zi takrorlash qobiliyatidir, ya'ni to'plangan bilim va ko'nikmalarning samaradorligini belgilaydi.

